



UDK: 385.928

Iqbolidin SULAYMONOV,
Andijon davlat universiteti dotsenti, i.f.n
E-mail: iosulaymanov@mail.ru

AndMI professori, i.f.d Q.X.Muftaydinov taqrizi asosida

EMPLOYMENT AND SOCIAL PROTECTION

Abstract

The article covers unemployment, employment problems and its aspects related to social protection issues. Also, the role of the reforms carried out in our country and foreign labor migration in increasing the employment of the population is revealed with the help of vivid examples.

Key words: employment, social protection, unemployment, labor migration, external labor migration, monocenter.

ЗАНЯТОСТЬ И СОЦИАЛЬНАЯ ЗАЩИТА

Аннотация

В статье освещаются безработица, проблемы занятости и ее аспекты, связанные с вопросами социальной защиты. Также с помощью ярких примеров раскрывается роль проводимых в нашей стране реформ и внешней трудовой миграции в повышении занятости населения.

Ключевые слова: занятость, социальная защита, безработица, трудовая миграция, внешняя трудовая миграция, моноцентр.

BANDLIK VA IJTIMOYIY HIMOYA

Annotatsiya

Maqolada ishsizlik, bandlik muammolari va uning ijtimoiy himoya masalalari bilan bog'liq jihatlar yoritilgan. Shuningdek, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning hamda tashqi mehnat migratsiyasining aholi bandligini oshirishdagi o'rni yorqin misollar yordamida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: bandlik, ijtimoiy himoya, ishsizlik, mehnat migratsiyasi, tashqi mehnat migratsiyasi, monomarkaz.

Kirish. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda har yili aholi bandligini ta'minlash bo'yicha turli dasturlar asosida, bo'sh ish o'rinlariga ishga joylashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, o'zini-o'zi band qilishning samarali shakllarini rivojlantirish borasida ta'sirchan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Aholining tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga, ijtimoiy zaif qatlamlar bandligini ta'minlashga, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, sifati va tezkorligini oshirishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy xujjatlar qabul qilindi va hayotga tadbir etilmoqda.

Keyingi vaqtda uyma-uy yurib o'rganish orqali aholini ijtimoiy himoya qilish, ehtiyojmand oilalarni aniqlashningo'ziga xos yangi tizimi shakllantirildi.

Shunday bo'lishiga qaramay, ayrim hududlarda bandlik borasidagi keskinlik hamon saqlanib qolmoqda. Doimiy ish o'rinlarini tashkil etish, yoshlar, xotin-qizlar, kam ta'minlangan oilalar a'zolari bandligini, ayniqsa, qishloq joylarda ta'minlash, qolaversa, tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish masalalari hamon oqsoqligicha qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yangi O'zbekiston strategiyasi asarida Yangi O'zbekistonni barpo etish borasidagi amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi, mazmun-mohiyati, ustivor yo'nalishlar haqida fikr yuritiladi. Kambag'allikni qisqartirish, qishloq hududlarida aholi bandligini oshirish, aholining ma'lum qatlamlarini ijtimoiy muhofaza qilish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan[1].

Mamlakat mustaqillikka erishgandan keyin yuzaga kelgan ishsizlik, bo'sh mehnat resurslarining ortib ketishi kabi muammolarni yechimi sifatida tashqi mehnat migratsiyasiga yo'l ochib berilishiga ularning geografiasining kengayishiga hayrixohlik bildiriladi. Biroq vaqt o'tishi bilan va mamlakat iqtisodiyoti taraqqiy etishi natijasida tashqi mehnat migratsiyasidan asta-sekin voz kechish, asosan mehnat resurslaridan mamlakat ichida foydalanish kerakligi to'g'risida tavsiyalar berilgan[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Ijtimoiy himoyaga va doimiy yordamga muhtoj shaxslarni o'z vaqtida hisobga olish mexanizmlarini samarali ishlatish, muhtojlik belgilari paydo bo'lgan vaqtdan boshlab ularni kuzatib borish va qo'llab-quvvatlashni, shu jumladan, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda bunday shaxslarning ijtimoiy ahvolini atroflicha monitoring qilish, ularning turmush sharoitlarini har tomonlama baholash, individual rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, o'z vaqtida zarur yordam ko'rsatish imkonini beruvchi tizimni takomillashtirishga alohida ahamiyat qaratish hozirgi kunning dolzarb masalasi ekanligini anglatadi.

Tahlil va natijalar. Ijtimoiy sohada samarali mexanizmlarni yaratishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjudligi ham sir emas.

"Bizning oldimizda aholi bandligini ta'minlash va ishsizlikni kamaytirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan zarur choralarni ko'rish kabi muhim vazifa turibdi.

Ijtimoiy sohada bizni qiynaydigan bir qancha savollar bor, jumladan: mamlakatimizda barcha ishsizlar ish bilan ta'minlanayotimi? Buning uchun yana nimalar qilish kerak? Xorijga ish qidirib ketganlarning qaysi muammolari hal etilmagan?

Biz bir narsani to'g'ri tushunishimiz kerak: bitta ishsiz odam – o'nta muammo degani. Bu muammolar ishsiz odamning o'ziga, oilasi va mahallasiga, jamiyatga keltiradigan zararini hisoblasak, masalaning naqadar jiddiy ekani oydinlashadi"[1].

Mamlakatimizning ko'plab hududlaridagi mehnat bozorida doimiy ish o'rinlari mavjud emasligi va shu bilan birga yoshlar, xotin-qizlar, kam ta'minlangan oilalar a'zolari bandligini to'la-to'kis ta'minlashga erishilmagani ham ijtimoiy sohaga doir islohotlar samarasini kamaytirmoqda.

Ishga joylashtirish va yangi ish joylari barpo etish masalasida tadbirkorlik sub'ektlari uchun kreditlar berish, axborot-maslahatlar berish kabi xizmatlar zamon talabidan ancha ortda qolmoqda.

Aksariyat hollarda tayyorlanayotgan kadrlar iqtisodiyot tarmoqlarining hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlarini, ularning imkoniyatlari va boshqalarni hisobga olmagan holda tayyorlanmoqda. Oqibatda mehnat bozorida ayrim mutaxassisliklar bo'yicha malakali kadrlar yetishmasligi, ayrim mutaxassisliklar bo'yicha esa malakali kadrlar ortiqchaligi holatlari yuzaga kelmoqda.

Biroq so'nggi yillarda aholini bandligini oshirish, o'zini-o'zi band qilish, turmush darajasini yaxshilash bo'yicha bir qator salmoqli ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoev Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida shunday deydi: "Iqtisodiyotimizda kundan-kunga yangi-yangi yo'nalish va sohalar yaratilmoqda. Bu borada tashabbuslarni yanada kengaytirish, ularga yangi istiqbollarni ochish maqsadida endi "qo'l boshqaruvi"dan – aniq natijaga ishlaydigan tizimli boshqaruvga o'tish vaqti keldi"[2].

Sir emaski hozirgi vaqtda maktab bitiruvchilarining deyarli 50 foizi hech qanday kasb-korga ega bo'lmagan holda mehnat bozoriga kirib kelmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek 2023 yildan boshlab har bir viloyatda 1 tadan texnikumning Yevropa kasbiy ta'lim standartlari asosida ishlab chiqarishga o'tishi, yaqin besh yillikda esa barcha texnikum va kollejlarning ham ushbu tizimga jalb qilinishi o'z mevasini berishi tayin. Maktab bitiruvchilari Yevropa standartlariga mos bir yoki bir nechta kasb-hunar egallagan holda mehnat bozoriga kirib keladi va o'z kasbiga mos ishini egallaydi. Bu o'z navbatida yuqorida aytib o'tganimizdek ishsizlik ortidan keladigan bir nechta muammolarning oldini olishi shubhasiz.

Darhaqiqat, aholini ijtimoiy himoya qilishning eng maqbul usullaridan biri, uni ish bilan band qilishdir. To'g'ri, aholining ayrim qatlamlarini ish bilan band qilinmaydi, ularni ijtimoiy muhofaza qilish uchun turli xil iqtisodiy mexanizmlardan foydalaniladi.

Barchamizga ma'lumki mamlakatimiz aholisining 60 foizga yaqini qishloq hududlarida istiqomat qiladi. Bu yerda ishsizlar va bo'sh mehnat resurslarining salmog'i ancha yuqori.

Biroq davlatimiz tomonidan qishloq xo'jaligidagi islohotlar izchillik bilan davom ettirilmoqda. Buni birgina 2022 yil misolida ham ko'rishimiz mumkin. Shu yili 100 ming gektar unumdor, hosildor ekin yerlari aholiga dehqonchilik qilish uchun bo'lib berildi. Natijada, qishloqlarda 400 ta dehqon xo'jaliklari tashkil etilib, 1200 mingdan ortiq odamlarimiz ish bilan band bo'ldi. Ular o'z daromadlariga ega bo'lib, turmush sharoitlarini yaxshilash bilan bir qatorda elimiz dasturxoniga 1,5 million tonnadan ortiq oziq-ovqat mahsulotlari tortiq qilishdi. Bu o'z navbatida bozorlardagi narx-navoning pasayishiga olib keldi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport hajmi ham ko'paydi. Qishloq xo'jaligida olib borilayotgan islohotlar 2023 yilda ham davom ettirilib suv ta'minoti qulay bo'lgan qo'shimcha yana 100 ming gektar yer aholiga bo'lib berilishi ko'zda tutilmoqda, buning natijasida 350 mingdan ortiq dehqon xo'jaliklari tashkil etiladi, 1 milliondan ortiq aholi doimiy ish o'rinlariga ega bo'ladi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda mehnat resurslarini band qilishda ayniqsa qishloq hududlarida bandlikni oshirishda tashqi mehnat migratsiyaning o'rni ham ancha yuqori.

Bizga sir emaski chet mamlakatlarda mehnat qilayotgan vatandoshlarimizning ko'pchiligini mehnat sharoitlari talab darajasida emas. Odam savdosi domiga tushib qolganlari ham ko'pchilikni tashkil qilar edi. Binobarin, migratsion jarayonlarni tahlil qilar ekanmiz uning muhim muammolari mavjudligini ham e'tirof etishimiz zarur. Xususan, aksariyat hollarda migrantlar ekspluatatsiya qilinib, ularning huquqlari poymol etiladi. Migrantlarning joylashgan mamlakatlari madaniyati va turmush tarziga moslashuvi, ya'ni, adaptatsiya jarayoni hamda integratsiyalashuvi qiyin kechadi. Ularni qabul qilayotgan davlatlar tub aholisini ish joylaridan mahrum etadi. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy aholining migrantlarga nisbatan salbiy munosabatini shakllantiradi. Ushbu va boshqa ko'plab sabablarga ko'ra, migratsiya muammosini har tomonlama, shu jumladan, siyosiy-sotsiologik jihatdan o'rganish talab qilinadi[5].

Ma'lumki, so'nggi yarim asr mobaynida katta iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishgan Turkiya, Xitoy, Hindiston, Filippin va hatto industrial rivojlangan Yaponiyada ham migratsion jarayonlar va unda ishtirok etgan fuqarolarning insoniy kechinmalari sotsiologiyasini izchil ilmiy o'rganish orqali katta yutuqlarni qo'lga kiritishgan. Ularning tajribalaridan bugungi kunda rivojlanib borayotgan boshqa mamlakatlar ham unumli foydalanmoqda[4].

Mamlakatimizda keyingi vaqtlarda mehnat migratsiyasi bilan bog'liq masalalarga davlatimiz, shaxsan davlat rahbari, katta e'tibor qaratmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan 2020 yil 15 sentyabrdagi «Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4829-sonli qarorning imzolanishi fikrimizning yorqin dalilidir. Ushbu qaror, Prezident rahbarligida davlatimiz tomonidan xalq farovonligini oshirish, davlatimizning xalqaro nufuzini ko'tarish, mamlakatni noto'g'ri shakllantirilgan va bizga yaxshi samara bermayotgan mehnat migratsiyasining (ayniqsa noqonuniy) illat va kamchiliklaridan xalos etishga qaratilgan muhim qadamdir[3].

Shu munosabat bilan, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi va tegishli tashkilotlarga topshiriqlar berilgan bo'lib ular ham o'z vakolatlarini doirasida sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqdalar.

Yangi davrda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi xorijda ishlash istagidagi yurtdoshlarimizni bunga tayyorlash va o'qitish, ularni tashkillashtirilgan holda ishga jo'natish hamda huquqiy himoya qilishga mas'ul.

Bundan tashqari, bu vazirlik o'z tuzilmasidagi agentlik orqali vatandoshlarning tashqi mehnat migratsiyasi geografiyasini kengaytirish vazifasini ham amalga oshirmoqda.

Hozirgi kunda ishsiz aholini mamlakat ichida ish bilan band qilishda va ularni xorij mamlakatlarida ish bilan ta'minlanishlarida Qoraqalpog'iston respublikasi va har bir viloyatda faoliyat olib borayotgan "Ishga marhamat" monomarkazlarining ham o'rni yildan-yilga ortib bormoqda. Qolaversa, "Qisqa muddatli kasb-hunar va chet tillarga o'qitish kurslari", "Kasb-hunarga o'qitish markazlari" hamda "Mahalla aholisini kasb-hunarga o'qitish maskanlari"i ham bo'sh mehnat resurslarini ish bilan bandligini oshirishda ularni chet ellarda ham munosib ish o'rinlariga ega bo'lishlarida o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda.

2020 yili 20700 ta aholi ushbu o'quv markazlarini tamomlagan bo'lsa 2021 yili 50000 dan ortiq aholi bitirib chiqqan.

Shu o'rinda Andijon viloyatida faoliyat olib borayotgan "Ishga marhamat" monomarkazining faoliyatini tahlil qilar ekanmiz, qisqa vaqt ichida sezilarli yutuqlarga erishganini ko'ramiz. Bu yerda avtoservis xizmati ko'rsatish, sartaroshlik (ayollar va erkaklar sartaroshi), aluminiy va plastik profilari bilan ishlash ustasi, buxgalteriya (o'rta malakali), kosmetolog, zargarlik, oshpaz, surdo tarjimon, WEB dasturchi va shunga o'xshash 32 xil yo'nalishda malakali kasb-hunar egalari tayyorlanmoqda.

Ushbu monomarkaz 2021 yili o'z faoliyatini boshlab, shu yilning o'zida 754 kishini o'qitib ularning malakasini tasdiqlovchi sertifikat va guvohnomalar berdi. 2022 yilda esa mazkur o'quv markazini 2731 kishi bitirib o'zlarining sertifikat va guvohnomalariga ega bo'ldilar. Quyidagi jadvalda bitiruvchilar va ularning bandlik holatlari aks ettirilgan.

Andijon shahar "Ishga marhamat" Monomarkazining 2021-2022 yillarda tahsil olgan tinglovchilar

	Jami bitirganlar	Jumladan						
		Rasmiy ish bilan band bo'lganlar	O'zini-o'zi band qilganlar	OTMga o'qishga kirganlar	Xorijga chiqib ketganlar	Kredit olish istagini bildirganlar	Kredit olganlar (foizda)	O'zi uchun o'rgangan fuqarolar
2021	754	75	235	37	12	0	0	279
2022	2731	218	1217	99	152	92	54%	964
Jami	3485	293	1452	136	164	92	54%	1243

Lekin, bu ko'rsatkichlar talab darajasidan ancha orqada.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, kelajakda "Ishga marhamat" monomarkazlarining rolini yanada ko'tarish kerak. Ko'plab ishsizlarni qamrab olish usullarini hayotga tadbiriq etishlari lozim. Bunda ayniqsa yuqori sinf o'quvchilari orasida, mahallalarda ma'ruzalar qilib, tushuntirish ishlari olib borilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Haftaning ma'lum bir kunlari o'zlarining faoliyat turlari, maqsadlari, qilingan ishlari to'g'risida mahalliy televideniylarda chiqishlar qilishsa yana ham ahamiyatli bo'lar edi. Chunki aholining juda ko'pchiligi bunday tashkilot borligini ham bilmaydi. Qolaversa mahallalarning ham ma'suliyatini oshirish kerak, ishsizlar, bo'sh mehnat resurslari ularning muammolaridan doimo voqif bo'lishlari, muammolarini bartaraf etishda ularga kerakli yordamni berishlari lozim.

Quyidagi tadbirlarni amalga oshirisa yana ham maqsadga muvofiq bo'lar edi. Jumladan:

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan ixtisoslashtirilgan o'quv markazlarida kasbiy malakani tasdiqlovchi xalqaro tan olingan sertifikatlarni berish tizimini joriy qilish;

Xorijda murakkab sharoitga tushib qolgan mehnat migrantlarini moliyaviy va ijtimoiy qo'llab quvvatlash, ularning hayoti va sog'ligini sug'urtalash amaliyotini kengaytirish;

Xorijda mehnat faoliyatini olib borayotgan vatandoshlarimizni huquqlarini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan yurtdoshlarimizni bandligini ta'minlash, kasbiy malakasini oshirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash kabi va boshqa tadbirlarni amalga oshirish aholini bandligini ta'minlash hamda ijtimoiy himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etgan bo'lar edi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi, Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi, 2022 yil 20 dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.09.2020 yildagi "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'hrisida"gi PQ-4829-sonli qarori.
4. Gulyamov S.S. i.f.d., akademik, Muhammedov M.M. i.f d., prof. Mehnat migratsiyasi va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish yo'llari, maqola, review.uz – 2020.
5. Alimov S., Aholi migratsiyasi va ahloqiy muhit ta'sirlashuvi, Falsafa va huquq – ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, falsafiy-huquqiy jurnal, 2021.
6. Xatamov O.Q., Ortiqov Sh.M., Aholi bandligini ta'minlash modellari va undan O'zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlari, "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2019 yil.
7. www.wikipedia.org